

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, III-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING INSTITUTSIONAL TO'SIQLARI VA IQTISODIY OQIBATLARI	10
I. R. Berdikulova	



RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING INSTITUTSIONAL TO'SIQLARI VA IQTISODIY OQIBATLARI

I. R. Berdikulova

SamISI, "Iqtisodiy tahlil va statistika" kafedrası o'qituvchisi, PhD

E-mail: irodaberdikulova82@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada rivojlanayotgan mamlakatlarda ESG (Environmental, Social, Governance – atrof-muhit, ijtimoiy masalalar, boshqaruv) tamoyillarini joriy etishda yuzaga keladigan institutsional to'siqlar va ularning iqtisodiy oqibatlarini kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotda huquqiy-me'yoriy bazani yanada takomillashtirish zarurati, institutsional muhitning yetarli darajada rivojlanmaganligi, axborot asimmetriyasi hamda madaniy omillar ESG integratsiyasiga qanday ta'sir ko'rsatishi o'rganilgan. Janubi-Sharqiy Osiyo, Lotin Amerikasi, Afrika va Markaziy Osiyo mamlakatlarining tajribasi qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, institutsional to'siqlarni bartaraf etish ESG tamoyillarining iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va rivojlanayotgan mamlakatlarga xalqaro kapital bozorlarida raqobatbardoshlikni ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: ESG, institutsional to'siqlar, rivojlanayotgan mamlakatlar, korporativ boshqaruv, barqaror rivojlanish, investitsiya muhiti, huquqiy tartibga solish, axborot shaffofligi, iqtisodiy oqibatlar.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of institutional barriers to implementing ESG (Environmental, Social, Governance) principles in developing countries and their economic consequences. The study examines how imperfections in the regulatory framework, insufficient development of the institutional environment, information asymmetry, and cultural factors affect ESG integration. A comparative analysis of the experiences of Southeast Asian, Latin American, African, and Central Asian countries is conducted. The findings demonstrate that eliminating institutional barriers significantly enhances the economic efficiency of ESG and ensures competitiveness in international capital markets.

Keywords: ESG, institutional barriers, developing countries, corporate governance, sustainable development, investment environment, legal regulation, information transparency, economic consequences.

Аннотация. В данной статье проведён комплексный анализ институциональных барьеров внедрения принципов ESG (Environmental, Social, Governance – экология, социальная ответственность, управление) в развивающихся странах и их экономических последствий. Исследовано влияние несовершенства нормативно-правовой базы, недостаточной развитости институциональной среды, информационной асимметрии и культурных факторов на интеграцию ESG. Проведён сравнительный анализ опыта стран Юго-Восточной Азии, Латинской Америки, Африки и Центральной Азии. Результаты показали, что устранение институциональных барьеров значительно повышает экономическую эффективность ESG и обеспечивает конкурентоспособность на международных рынках капитала.

Ключевые слова: ESG, институциональные барьеры, развивающиеся страны, корпоративное управление, устойчивое развитие, инвестиционная среда, правовое регулирование, информационная прозрачность, экономические последствия.

KIRISH

XXI asrning uchinchi o'n yilligida barqaror rivojlanish konsepsiyasi jahon iqtisodiyotining asosiy paradigmasiga aylandi. ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari zamonaviy korporativ boshqaruvning ajralmas qismiga aylanib, investitsiya qarorlarini qabul qilishdan tortib kompaniyalar strategiyasini shakllantirishgacha bo'lgan jarayonlarda muhim rol o'ynay boshladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari (BMT BRM) va Parij iqlim kelishuvi ESG tamoyillarining global miqyosda tarqalishiga kuchli turtki berdi. Biroq, rivojlangan mamlakatlardan farqli o'laroq, rivojlanayotgan mamlakatlarda ESG tamoyillarini joriy etish jarayoni bir qator muhim institutsional cheklovlarga duch kelmoqda. D. Northning (1990) institutsional nazariyasiga ko'ra, iqtisodiy rivojlanishning sifati va sur'ati bevosita institutsional muhitning yetuklik darajasiga bog'liq. Rasmiy institutlar (qonunlar, tartibga solish organlari, sud tizimi) va norasmiy institutlar (madaniyat, an'analar, ishonch darajasi) birgalikda ESG tamoyillarini joriy etish uchun zarur muhitni shakllantiradi.



Tadqiqotning maqsadi – rivojlanayotgan mamlakatlarda ESG tamoyillarini joriy etishga to'sqinlik qiluvchi institutsional omillarni tizimli tahlil qilish, ularning iqtisodiy oqibatlarini baholash va bu to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdir. Tadqiqotda Janubi-Sharqiy Osiyo, Lotin Amerikasi, Sahroyi Kabirdan janubdagi Afrika va Markaziy Osiyo mamlakatlarining tajribasi qiyosiy tahlil qilingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

ESG tamoyillarining rivojlanayotgan mamlakatlarda joriy etilishi masalasi so'nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda faol muhokama qilinmoqda. A. Khanna va boshqalar (2020) rivojlanayotgan bozorlarda ESG integratsiyasining asosiy to'siqlarini tizimlashtirgan bo'lib, ular huquqiy bazani mustahkamlash zarurati, axborot shaffofligining pastligini va korporativ madaniyatning yetarli darajada rivojlanmaganligini asosiy muammolar sifatida aniqlashgan. E. Avetisyan va K. Hockerts (2017) ESG reytinglash tizimlarining rivojlanayotgan mamlakatlardagi xususiyatlarini tadqiq qilishgan. Institutsional iqtisodiyot nuqtai nazaridan D. Acemoglu va J. Robinsonning (2012) tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Ular iqtisodiy rivojlanishda "inclusive" (qamrab oluvchi) va "extractive" (siqib chiqaruvchi) institutlar o'rtasidagi farqni ta'kidlab, barqaror iqtisodiy o'sish uchun institutsional islohotlarning zaruratini asoslashgan. MDH mamlakatlarida ESG muammolarini A. Abramov va boshqalar (2017), O'zbekiston amaliyotida esa S. G'ulomov (2019), B. Tursunov (2021) kabi olimlar tadqiq qilishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi quyidagi usullarga asoslangan: qiyosiy institutsional tahlil — turli mamlakatlar institutsional muhitining solishtirma tahlili, kontent-tahlil — xalqaro tashkilotlar hisobotlari va milliy qonunchilik hujjatlarini tahlil qilish, statistik tahlil — ESG ko'rsatkichlari va iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikni aniqlash. Ma'lumotlar manbasi sifatida Jahon banki, XVF, UNCTAD, MSCI va Bloomberg ma'lumotlar bazalaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Institutsional to'siqlar va iqtisodiy oqibatlar tahlili.

Huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish zarurati. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligida ESG tamoyillarini tartibga soluvchi huquqiy baza hali to'liq shakllanmagan. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarning atigi 23 foizida ESG hisobdorlik talablari qonun darajasida belgilangan bo'lib, rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 78 foizni tashkil etadi. Huquqiy bazaning nomukammalligi bir necha iqtisodiy oqibatga olib keladi. Birinchidan, kompaniyalar uchun ESG bo'yicha hisobdorlik majburiy bo'lmaganligi sababli, ixtiyoriy tarzda hisobot beruvchi kompaniyalar soni nisbatan kam. Bu esa investorlar uchun axborot asimmetriyasini kuchaytiradi va kapitalning nisbatan samarasiz taqsimlanishiga olib keladi. Ikkinchidan, huquqiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish zaruratini hisobga olsak, ESG talablariga to'liq rioya qilmagan kompaniyalarga nisbatan samarali sanksiyalar qo'llash imkoniyati cheklangan. Uchinchidan, standartlarning yagona emasligi xalqaro investorlar uchun qo'shimcha xarajatlar yaratadi, chunki har bir mamlakatda alohida regulativ muhitni o'rganish talab etiladi.

Institutsional muhitning yetarli darajada rivojlanmaganligi. ESG tamoyillarini samarali joriy etish uchun bir qator yordamchi institutlarning mavjudligi zarur: mustaqil reyting agentliklari, audit kompaniyalari, ESG konsalting firmalari, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bu institutlarning faoliyatini yanada rivojlantirish zarur. UNCTAD tadqiqotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarning 65 foizidan ortig'ida mustaqil ESG reyting agentliklari mavjud emas. Institutsional yetishmaslik quyidagi iqtisodiy oqibatlarga olib keladi: ESG ma'lumotlarining ishonchligini oshirish zarur bo'lib, "yashil yuvish" (greenwashing) xavfi oshadi; kompaniyalar ESG strategiyasini ishlab chiqishda professional yordam ola olmaydi; investorlar ESG xatarlarini to'g'ri baholay olmaydi, bu esa kapital bozorining samaradorligini pasaytiradi.

Axborot asimmetriyasi va shaffoflik muammolari. Rivojlanayotgan mamlakatlarda korporativ shaffoflikni oshirish zarurati ESG tamoyillarini joriy etishda eng jiddiy to'siqlardan biri hisoblanadi. Transparency International ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarning 70 foizdan ortig'ida korporativ hisobdorlik standartlari xalqaro talablarga (IFRS, GRI) to'liq mos kelmaydi. Bu axborot asimmetriyasi quyidagi iqtisodiy oqibatlarga olib keladi: xorijiy investorlar uchun "ma'lumot mukofoti" (information premium) shakllangan bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlar kompaniyalarining kapital jalb qilish xarajatlari o'rtacha 2–4 foiz punktga yuqori; ESG reytinglash tizimlarida ma'lumotlar yetishmasligi sababli rivojlanayotgan mamlakatlar kompaniyalari

ko'pincha past baholanadi; investitsiya fondlari va pensiya fondlari ESG mezonlariga mos ma'lumot olmaganligi sababli bu mamlakatlarga investitsiya kiritishda ehtiyotkorlik bilan yondashadi.

Madaniy va ijtimoiy omillar. Institutsional iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lgan norasmiy institutlar — madaniy qadriyatlar, biznes an'analari va ijtimoiy normalar — ESG tamoyillarini joriy etishda muhim rol o'ynaydi. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda korporativ madaniyat qisqa muddatli foyda olishga yo'naltirilgan bo'lib, uzoq muddatli barqarorlik masalalariga yetarli e'tibor berilmaydi. Bundan tashqari, oilaviy va davlat nazoratidagi kompaniyalarning katta ulushi boshqaruv shaffofligini pasaytiradi. Hofstede madaniy o'lchovlari bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, yuqori "hokimiyat masofasi" (power distance) va past "noaniqlikdan qochish" (uncertainty avoidance) ko'rsatkichlariga ega mamlakatlarda ESG joriy etilishi sekinroq boradi. Bu madaniy xususiyatlar ESG tamoyillarining iqtisodiy samaradorligiga ham ta'sir ko'rsatadi: institutsional shaffoflik darajasini oshirish zarur bo'lgan mamlakatlarda ESG investitsiyalari qaytimi nisbatan past shakllanishi mumkin.

Mintaqaviy tajribaning qiyosiy tahlili. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida ESG integratsiyasi nisbatan tez sur'atlarda bormoqda. Singapur, Malayziya va Tailand fond birjalari ESG hisobdorlik talablarini majburiy qilib joriy etgan bo'lib, bu mintaqaga xorijiy investitsiyalar oqimini 2018–2023-yillarda 35 foizga oshirgan. Lotin Amerikasida Braziliya va Chili ESG sohasida peshqadamlik qilmoqda: Braziliyaning B3 fond birjasi "hisobot ber yoki tushuntir" tamoyilini qo'llab, kompaniyalarning ESG shaffofligini sezilarli yaxshilagan. Afrika mamlakatlari orasida Janubiy Afrika Respublikasi King IV korporativ boshqaruv kodeksi orqali ESG integratsiyasida sezilarli yutuqlarga erishgan. Markaziy Osiyo mintaqasida esa Qozog'iston AIFC (Astana International Financial Centre) doirasida xalqaro ESG standartlarini joriy etishda yetakchilik qilmoqda. O'zbekiston ham so'nggi yillarda ESG yo'nalishida muhim qadamlar qo'ygan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori bilan tasdiqlangan "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" [1] hamda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar bu jarayonni jadallashtirishga xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish imkonini beradi. Birinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlarda ESG tamoyillarini joriy etishga to'sqinlik qiluvchi institutsional to'siqlar to'rt asosiy guruhga bo'linadi: huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish zarurati, institutsional muhitning yetarli darajada rivojlanmaganligi, axborot asimetriyasi va madaniy omillar. Bu to'siqlar o'zaro bog'liq bo'lib, bir-birini kuchaytiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchidan, institutsional to'siqlarning iqtisodiy oqibatlarini jiddiy: kapital jalb qilish xarajatlarining oshishi (2–4 foiz punkt), xorijiy investitsiyalar oqimining kamayishi, ESG ma'lumotlarining noto'g'ri talqin qilinishi xavfining kuchayishi va ESG investitsiyalari qaytimining nisbatan past shakllanishi. Bu oqibatlar yig'indisida rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro kapital bozorlaridagi raqobatbardoshligini sezilarli pasaytiradi. Uchinchidan, mintaqaviy tajriba tahlili shuni ko'rsatdiki, ESG tamoyillarini muvaffaqiyatli joriy etish uchun fond birjalari orqali "hisobot ber yoki tushuntir" tamoyilini joriy etish, mustaqil ESG reyting va monitoring tizimlarini yaratish, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda ESG kadrlar tayyorlash dasturlarini ishga tushirish hamda bosqichma-bosqich yondashuv qo'llash zarur. To'rtinchidan, O'zbekiston uchun amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: Toshkent fond birjasida ESG hisobdorlik talablarini bosqichma-bosqich joriy etish; milliy ESG reyting tizimini yaratishda Qozog'iston AIFC tajribasidan foydalanish; YEIB, OIB va Jahon banki bilan hamkorlikda ESG texnik yordam dasturlarini kengaytirish; oliy ta'lim muassasalarida ESG bo'yicha ixtisoslashtirilgan ta'lim dasturlarini joriy etish.

Kelajak tadqiqotlar uchun quyidagi yo'nalishlar istiqbolli hisoblanadi: rivojlanayotgan mamlakatlarda ESG va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi omilli

bog'liqlikni ekonometrik usullar yordamida aniqlash, sanoat tarmoqlari kesimida institutsional to'siqlarning differensial ta'sirini o'rganish hamda raqamli texnologiyalarning ESG monitoring tizimlaridagi rolini tadqiq qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori. 2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. – Toshkent, 2019. – URL: <https://lex.uz/docs/-4539502>
2. G'ulomov S. S. Korporativ boshqaruvni takomillashtirish masalalari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. – 2019. – № 4. – B. 15–25.
3. Tursunov B. O'zbekistonda ESG tamoyillarini joriy etish istiqbollari // Moliya va bank ishi jurnali. – 2021. – № 2. – B. 38–48.
4. North D. C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 159 p.
5. Acemoglu D., Robinson J. A. Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty. – New York: Crown Business, 2012. – 544 p.



6. Khanna T., Palepu K. G. Winning in Emerging Markets: A Road Map for Strategy and Execution. – Boston: Harvard Business Press, 2010. – 272 p.
7. Avetisyan E., Hockerts K. The Consolidation of the ESG Rating Industry as an Enactment of Institutional Retrogression // Business Strategy and the Environment. – 2017. – Vol. 26, Iss. 3. – P. 316–330.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100